



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 13-son



8-DEKABR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI KUNI



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

M U N D A R I J A

TADQIQOT

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liq Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulkayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimariyam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Baxtiyor Daniyorov. Rus tilini xorijiy til sifatida jadal o'rgatish metodikasining ilmiy-amaliy asoslari.....	3
Durdona Xudoyberganova. Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	6
Nigora Sharipova. "Hayrat ul-abror" kompozitsion qurilishida basmalaning o'rni.....	8
Maxsuda Saribayeva. Mumtoz asarlarni o'qitishda innovatsion yondashuv (Boburning "Boburnoma" asari misolida).....	10
Dilnoza Ruzmatova, Shaxnoza Begimkulova. Ikki madaniyatga mansublik: afg'on-amerikalik adibaning haqiqati (Maryam Quadrat Asil)	14
Saodat Sultansaidova. Sharq adabiyotida mushtarak va farqlovchi xususiyatlar (o'zbek va koreys poeziyasining qiyosi misolida).....	17
Mahina Axrorova. Alisher Navoiyning ijodiy an'analari Abdulla Avloniy va Cho'lpon ijodida shaxs xususiyatiga ko'ra xoslanishi.....	20
Nodira Hamidova. "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida umumxalq tiliga xos badiiy ifoda uslublari.....	22
Dilnoza Fayzullayeva. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarni o'qitish jarayonida smart texnologiyalardan foydalanish.....	25
Ozoda Shukurboyeva. Blum taksonomiyasidan foydalanib badiiy asarlarni tahlil qilish.....	27
Dilnoz Ollaberganova. Malala Yusufzoy va Xolid Husayniy asarlarida gender tenglik tushunchasi.....	30
Ra'no Fayzullayeva. "Xamsa" hayratlari" – so'nmas e'tiqod ifodasi.....	32
Barchinoy Baymatova. Umumiy ovqatlanish muassasalari nomlariga doir.....	35
Dildora Mavlanova. Maqollarning muloqot mexanizmi sifatida qo'llanilishi va ularning qiyosiy tahlili.....	38
Intizor Jumaniyazova. "Saddi Iskandariy" dostonini o'rganishda ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish.....	40
Firuz Murodova. "To'maris" va "Shiroq" afsonalarida vatanparvarlik nutqi leksikasi.....	42
Muhiddin Nurullayev. "Mulk" surasi oyatlarining ma'no tarjimalarida qo'llanilgan leksik birliklar (O'zbek tili misolida).....	44
Ulug'bek Ko'chimov. Qahramon ruhiyatini o'rganishning nazariy asoslari.....	47
Madixabonu Pardayeva. O'zbek milliy hajviyasining Abdulla Qodiriy ijodiy merosida yaratilishi.....	49
Anvar Temirov. Maktabgacha ta'lim tashkilotini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishda rahbarga qo'yilgan talablar.....	51
Durdona Abdurayimova. Psixolingvistikada shaxs temperamentlari tadqiqining sud jarayonlaridagi ahamiyati.....	53
Aziza Shukurova. Samarqand va Sariosiyo tojik shevalaridagi etnografizm leksemalarning qiyosiy tahlili.....	55
Dilraxon Rustamova. Termin va uning ensiklopedik lug'atlarda berilishi.....	58
O'tkir Ostonov. "Qutadg'u bilig" asari va undagi ijtimoiy-siyosiy leksik maydon.....	60
Mahliyo Jo'rayeva. Shoir Habibiy va uning devoni haqida.....	62
Nilufar Allaberganova. Reklama matnlarida manipulyatsiya vositalarining ifodasi.....	66
Ulug'berdi Pardayev. Umar Sayfiddinning "Pecheviy, Sehrgar, Forsa" hikoyalarida arxaizmlarning berilishi.....	68
Mirzaraxim Zokirov. Perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy uslubiy jihatlari.....	71



Ilmiy-metodik elektron jurnal

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

Maxliyo To'raqulova. Tazkiranavislik an'anasi va taraqqiyot tamoyillari.....	73
Dilshod Rajabov, To'xtamurod Rajabov. She'riyatda ko'chimlarning yuzaga kelish usullari, xususiyatlari va badiiylanish ko'rinishlari.....	75
Marjona Xayrullayeva. Buxoro viloyat Vobkent tumandagi joy nomlari asosida shakllangan toponimlarning paydo bo'lishi.....	77
Ibratbek Qurbanov. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning dolzarb muammolari va yechimlari.....	80
Gulshan Musulmonova. "Zarbulmasali Sidqiy" asari qo'lyozmasi haqida.....	83
Berdibek Yusupov. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi.....	85
Nigora Ruziyeva. Isajon Sulton romanlarida qo'llanilgan metaforaning leksik xususiyatlari.....	88
Maftuna Nurboyeva. Tilshunoslikda frazeologiya va uning tasnifiga oid tadqiqotlar tahlili.....	90
Hasan Gafforov. Gender in modern linguistics.....	93
Sitora Xasanova. Exploring linguoculturology: language, culture, and the concept of a cultural concept.....	95
Damira Suvonova. The investigation of taste adjectives in linguistics.....	97
Kakhramon Kuralov. Content and language integrated learning (clil) for future specialists in the field of natural sciences.....	99
Кодиржон Мўйдинов. Фразеологизмы - одна из лингвистических единиц лексикона судебной речи.....	101

TAHLIL

Yo'ldosh Rahmatov. So'z ko'rki – maqol.....	103
Azamat Atayev. O'zbek tilidagi ayrim arabiy o'zlashmalarning etimologiyasiga doir.....	105
Latofat Tashmuhamedova. O'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili.....	107
To'ra Toshmuhammad Zarif. Hofiz Xorazmiy asarlarining matniy tadqiqi.....	109
Xurshida Ro'ziyeva. Abdulla Oripov asarlarida leksik sinonimlar.....	110
Moxichehra Muxammadiyeva. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi qush obrazlari.....	113
Dilruxjon Abdilakimov. Cho'lpon ijodi zamondosh munaqqidlar nigohida.....	115
Dilshod Xursanov. Omon Matjon she'riyatida esxatologik motivlar badiiyati.....	118
Nargiza Pazlitdinova. Alisher Navoiyning mulamma' san'atiga asoslangan g'azali.....	120
Sapura Ne'matova, Akbar Jumanov. Bobur g'azallarida go'zallik talqini.....	123
Jahongir Turdiyev. "Lison ut-tayr" asarida me'roj tavsifi.....	126
Munira Akbarova. G'ayriodatiy birikmalar professor Nizomiddin Mahmudovning ilmiy qarashlarida.....	128

METODIK TAVSIYA

B.Xusniddinova. Bo'lajak logoped mutaxassislarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish.....	131
Nigora Umarova. O'zbek tili ta'limida savol o'quv topshirig'ining ahamiyati.....	133
Madina Alimova. Til o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar haqida.....	136
Dilnura Avezova. Esse – o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi vosita.....	139
Oysuluv Musurmonkulova. Adabiy ta'limda o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish usullari.....	142
Nazarov Vahobjon. Multimedia va raqamli texnologiyalarning chet tili o'qitish jarayoniga tatbiq etishning zaruriyati.....	145
Shaxnoza Muxtarova. Ona tilini rus tili fani bilan bog'liqlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.....	148
Surayyo Muqumova. Ona tilini o'qitishda ta'lim tamoyillararo integratsiya.....	150
Gulruh Bozorova, Maysara Eshniyazova. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	152
S.Yuldasheva, S. Najiyeva. Didaktik jarayonida talabalar ijodkorligini rivojlantirish.....	156
Marxabo Xakimova. Tarbiyada qadriyat va ma'naviyatning o'rni va ahamiyati.....	158
Sh.Nizamova, Shaxnoza Ibrohimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etish yo'llari.....	159
Nodira Zikirova. The role of innovatite technologies in the development of methodical training of teachers in general secondary educational institutions.....	162
Madina Dalieva. Term and its specific semantic characteristics.....	165
Shaxlo Maxkamova. Approaches and methods of teaching english grammar.....	168
Фарида Умарова. Методическая разработка на тему «Праздники. Как поздравить с чем-нибудь?».....	171

TILSHUNOSLIK

Shaxnoza Djurayeva. Axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklar.....	176
To'lqin Mardiyev. O'zbek badiiy asarlarida vatan konseptining lingvomadaniy tahlil.....	177
Baxodir Suyunov. Tashqi tibbiy lakunalar.....	179
Oydin Nurullayeva. Parallel korpuslarda frazeologik birliklarning ifodalanishi.....	183
Sunnat Abdunabiyev. Arab tilshunosligida atamashunoslik.....	185
Mahbuba Qobilova. Izohli lug'atlarda sotsial ma'noli leksemalarning semantikasi.....	189

MULOHAZA

Suxrob Saitov. O.Henry ijodi va milliy adabiy jarayoni.....	191
Saxatmurot Xurramov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv mahorati muammolari.....	192

KICHIK TADQIQOT

Hulkar Jo'raqulova. Qoraqalpoq va o'zbek tilidagi frazemalarning qiyosiy tahlili.....	194
Muxlisa Sobirova. O'zbek ismlarining sotsialingvistik xususiyatlari.....	195

harakat qilishadi va Iskandarning tug'ilishidan boshlab vafotiga qadar jarayonlarning qanday kechganligi, bu tushunchalarning asl mazmuni haqida fikr bildiradilar. Iskandarning ko'p mamlakatlarni egallashi, safar chog'idagi ko'p sarguzashtlarni boshdan kechirishi zahirida ham irfoniy bilimlarining yuksalishi, ruhiy olamining tobora boyib borishi va solik ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarda ham zohiriy ma'no yashiringan. Ya'ni uning bu yo'ldagi sabr-u qanoati, irodasi Olloh jamoliga erishish yo'lidagi sinovlardir. Shunday qilib Iskandar bu riyoatlarni boshidan kechirish barobarida nafs, boylik hirs, shaytoniy illatlarni bartaraf eta oladi, borgan sari ko'ngil ko'zgusi dunyoga bo'lgan muhabbat ishqidan toza bo'la boshlaydi va Ollohga yaqinlasha boradi. O'quvchilar qog'ozdagi tushunchalarning zohiriy va botiniy ma'nolarini anglashi lozim. Dostonda Arastu – piri komil, Iskandar esa komillikka intilgan murid timsolidir. Iskandar asar rivojida bot-bot Arastuga o'zi yechimini topolmayotgan masalalar yuzasidan savollar bilan murojaat etadi va ustozidan olgan javoblari bilan bilimini boyitib boradi. Demak, Iskandar ramziy obraz, xolos. Shoir asarida tarixiylik emas, badiiylilik asosiy o'rin tutadi. Shu jihatdan Iskandar timsolida adolatli shoh haqidagi fikrlar ilgari surilgan. "Saddi Iskandariy" dostonidagi har bir obrazda ramziy ma'nolar aks etgan.

Ramziy timsollarning asl mohiyatini ilg'agan o'quvchi Navoiy dahosini, Iskandarning komil inson ekanligini anglab yetadi.

Yagona talqin o'quvchi fikrlarini chegaralab qo'yishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, talqinlar birinchi navbatda, ijodkor ichki olami, tuyg'ulariga yaqinlik, ruhiyat va dunyoqarash uyg'unlik bilan bog'liq jarayon. Shunday ekan, har bir o'quvchi to'g'ri yo'naltirilsa ijodkor badiiy-g'oyasiga yaqin kelgan talqinlarni bera olishi mumkin. Bu haqida adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Maktab adabiyotshunosligi, avval boshdan, avtoritar va dogmatik ko'rinishga ega. O'qituvchilar ham, o'quvchilar ham badiiy asarni keragiday tushunishga doimo majbur qilinganlar va shu yo'l bilan ularda san'at asariga jonli, individual yondashuv yo'qotib kelingan". O'quvchi talqinda chalg'imasligi uchun o'qituvchi dostonning badiiy-g'oyasiga yo'naltiruvchi barcha vositalarni tahlilga tortishi lozim. Yuqoridagi kabi ijodni ijodkor shaxsi bilan bog'lash yoki dostonda aks etgan timsollar mohiyatiga yo'naltirilgan tahlillar kabi. "Badiiy asarning mazmuniy asoslari ko'pgina hollarda mazmunning subyektiv tomonida yotadi. Bu jihatni ko'zda tutish, ayniqsa, maktab adabiy ta'limi uchun muhimdir. Negaki, bu yerda vaqt va kuchning juda katta qismi deyarli bekorga mavzu talqiniga sarflanadi". Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonini umumta'lim maktablarida shu tarzda tahlil qilish samarali natijalarni beradi. Baytlar o'qilishi davomida o'quvchi yozilgan haqiqatlarni anglab yetadi. O'quvchilarda buyuk adib ijodiga muhabbat, yuksak insoniy fazilatlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Yosh avlodni har tomonlama komil, Vatanimizga sidqidildan xizmat qiladigan shaxs qilib tarbiyalashda mumtoz matn bilan ishlash va tahlil yuqori natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T. 2018. 214-bet.
2. Yo'ldoshev. Q. Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T. 2016 .220-bet.
3. Xayrullayeva Sharofat Sayfullayevna. Adabiyot darslarida "Saddi Iskandariy" dostonini o'qitishning samarador usullari. Maqola. Volume 2, Issue 4, Part 2 April 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7875004>
4. Қодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фанл. доктори (ДСс) диссер. Наманган: 2019.

Firuz MURODOVA,
ChDPU o'qituvchisi

"TO'MARIS" VA "SHIROQ" AFSONALARIDA VATANPARVARLIK NUTQI LEKSIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada vatanparvarlik nutqi, uning o'ziga xos tomonlari, xalq afsonalarida, jumladan, "To'maris" va "Shiroq" afsonalarida qahramonlarning vatanparvarlik ruhida nutqi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-siyosiy nutq, vatanparvarlik nutqi, nutq madaniyati, leksika, jangovarlik.

Xalqimizning asrlar osha o'zining yuksak qadrini bir lahzaga bo'lsa-da, yo'qotmay kelayotgan insoniy fazilatlaridan biri o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga – Vatanga muhabbat, vatanparvarlik fazilatidir.

Bu kabi yuksak insoniy fazilat va bunday muqaddas tuyg'u xalqimizning qon-qoniga singib ketgani ayni haqiqatdir. Shu o'rinda tarixga nazar salsak, yurtimiz sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgani bois ushbu jannatmakon zaminga egalik qilishni ko'plab imperiyalar, hukmdorlar istagan. Afsonalarga aylanib ketgan Shiroq, To'maris, Spitamen kabi shaxslar Vatanni himoya qilish, uni dushmandan ko'z qorachig'idek asrash yo'lida bor

kuch va imkoniyatini safarbar etib, bu yo'lda moli-yu jonini, sha'nini, hayoti va oilasini ham ayamagan. Shuning uchun ham bunday vatanparvar insonlarning Vatan oldidagi buyuk xizmatlari tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan.

Vatan uchun kurashgan ajdolarimiz bilan qanchalik faxrlansak, arziydi. Ularning jasorati, mardligi, jasurligi bosh eggulik, ammo haqiqiy vatanparvarlikni ularning so'zida, yuragidan jo'shib chiqayotgan nutqida ham ko'rish mumkin. Maqolamizda buyuk qahramonlarimizning nutqiga, ularning leksik sathiga e'tibor qaratishni joiz topdik.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa-da, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Notiqlik san'ati qadimgi davrlardan boshlab jamiyatning, o'sha davrning siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy asosi bo'lib xizmat qilib keladi. Chunki buyuk sarkardalar, davlat boshliqlari uchun notiqlik muhim sanalgan. Ularning nutqidagi jo'shqinlik, pafos, ko'tarinkilik va vatanparvarlik xalqqa, armiyaga, jangchilarga ruh bag'ishlagan. Vatanparvarlik nutqlari insonlarni yashashga, yangi maqsadlarga, yangi g'oyalarga boshlashga turki bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qadimdan xalqimiz xalq afsonalaridagi qahramonlarning vatanparlik nutqidan ta'sirlangani, hali hanuz ularga taqlid qilishi, qizlarimizni To'marisdek, yigitlarni Shiroqdek mard va jasur bo'lishlarini, ularning so'zidagi, qalbidagi shijoatni madh etishi bejiz emas. Maqolamizda aynan xalq afsonalaridan "To'maris" va "Shiroq" qahramonlarning vatanparvarlik nutqi leksikasiga to'xtalishni lozim topdik.

... O'sha kuniyoq To'maris, urushga yaramaydiganlar panaroq joyga yuborilsin, deb buyruq berdi, keyin otlarining jilovidan ushlab saf tortib turgan erkak va ayollarning qurol-yarog'lari, ust-boshlari, oyoq kiyimlarini ko'zdan kechirdi. Ularning puxtaligiga qanoat hosil qilgandan keyin bir arg'umoqni qurbonlikka so'ydirib, Quyosh tangrisiga iltijo qilish uchun bir tepalik ustiga chiqdi. Belidagi oltin kamariga osilgan qilichi va qalqonini yerga qo'yib, massagetlar nazdida xudolarning xudosi bo'lgan Mihraga sig'ina boshladi:

-Ey, butun mavjudotni – yer-u ko'kni, suv va o'tni yaratgan Quyosh tangrisi! Sen ko'zingini ochsang – olam nurga to'ladi; ko'zingni yumsang – yer yuzini qorong'ulik lashkari bosadi. Odamlarga o't bergan ham sen, daryolarni toshirgan, ekinzor va o'tloqlarga suv bergan ham sen! Qo'y va kiyiklarni ko'paytirish, don-dunga baraka bergan ham sen! Ey, ulug' Quyosh tangrisi, bizni eroniylarga xor qilma, dilimizga g'ayrat, bilagimizga quvvat ato qil, yuragimizga o'ch olovini sol!

Qilichimizni o'tkir qil, toki, yurtimizni oyoqosti qilgan makkor dushmanni tor-mor aylab, qullik balosidan xalos bo'laylik ...

"To'maris" afsonasidan olingan yuqoridagi parchaga diqqat qaratamiz. Odatda nutqlarni tahlilga tortishda gender leksikasi muhim ahamiyatga ega. Ayollar nutqida ko'proq iltijo, shikoyat, qiynalish kabi mazmun kuzatilsa, erkaklar nutqida qat'iyat, jasorat, bir so'zlilik ifodalanib turadi. Ammo vatanparvarlik mavzusiga kelganda so'zlardagi genter tafovut aralashadi. To'maris nutqidagi o'ziga ishonch va qat'iyatlilik *"dilimizga g'ayrat, bilagimizga quvvat ato qil, yuragimizga o'ch olovini sol! Qilichimizni o'tkir qil"* jumalari erkaklar nutqidagi singari jasoratni, jangovarlikni ifodalasa, *"...odamlarga o't bergan ham sen, daryolarni toshirgan, ekinzor va o'tloqlarga suv bergan ham sen! qo'y va kiyiklarni ko'paytirish, don-dunga baraka bergan ham sen!"* kabi jumalalarda ayollarga, onalarga xos tobelik, farzandini, oilasini, ro'zg'or g'amini o'ylashi buning isbotidir. Bundan tashqari vatanparvarlik nutqlarida, odatda, nutq ko'rinishidagi sodda yoyiq gaplardan, qo'shma gap konstruksiyalaridan, uyushiq bo'lakli gaplar qo'llanilishi ko'p uchraydi. To'marisning yuqorida keltirilgan nutqida ham, kengaygan uyushgan bo'laklar, murakkab qo'shma gap shaklidagi gaplar qatnashgani buning yaqqol dalilidir.

To'marisning yana bir ta'sirchan nutqini tahlilga tortamiz:

- Opa-singillar, aka-ukalar, qaerga ketayotganingizni hammangiz bilasiz. Shu ketganimizcha yo hammamiz bitta qolguncha qirilib, o'z qonimiz bilan sha'nimizga tushgan dog'ni yuvib tashlaymiz, yoki dushmanni qirib yuborib, g'alaba bilan qaytamiz. Ishonaman: oramizda Eron shohi oldida tiz cho'kadigan nomard yo'q. Hammamiz bir bo'lsak, kim yenga oladi bizni. Biz, albatta yengamiz! Shafqatsizlikni bizlardan ko'rsin Eron shohi !...

Ushbu parchada kelgan *"o'z qonimiz bilan sha'nimizga tushgan dog'ni yuvib tashlaymiz"* iborasiga diqqat qiladigan bo'lsak, bu ibora jang qilishni, jang qilganda ham vijdonan, astoydil dushman bilan olishish va oxirida g'alaba qilish mazmunini ifodalaydi. Ushbu nutqda asosan, undov va buyruq gaplar faol bo'lib, ishontirish, g'alabaga undash kabi g'oyalar, da'vat va chaqiriqlar yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, sintaktik jihatdan nutqda kengaygan birikmalar, murakkab qo'shma gap, kengaygan uyushiq bo'laklar qatnashgan. Shuningdek, keltirilgan matn tarkibida darak, so'roq, buyruq gaplar qatorida undov gaplarning ko'p marotaba qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda undov gaplar xitob xarakterida bo'lib, so'roq gaplarning ritorik shakllariga murojaat qilingan (*Hammamiz bir bo'lsak, kim yenga oladi bizni*). Buyruq gaplar buyurish, do'q urish mazmunida emas, balki da'vat maslahat, iltimos, orzu –istak mazmunida ham

ifodalanadi.

Vatanparvarlik g'oyalari singdirilgan, vatanparvarlik nutqi alohida e'tiborga olingan asarlar talaygina. Shunday asarlardan biri bo'lgan "Shiroq" afsonasi qahramoni Shiroqning nutqi xususida to'xtalamiz. Shiroq (yunon manbalarida Sirak) (mil. av. 6-asr) - Turon xalqlarining axomaniylar podshosi Doro I (q. Doro) bosqiniga qarshi kurashgan xalq qahramoni. Shiroqning hayoti haqida manbalarda juda oz ma'lumotlar saqlanib qolgan. Mil. av. 6-asr boshlarida Eron shohi Doro I qo'shini Turon hududiga bostirib kirgan. Yunon tarixchisi va notig'i Polien (mil. 2-asr) ning 8 kitobdan iborat «Harbiy hiylalar» («Strategmalar») asarida ilk marta Shiroq jasorati tilga olingan.

...U Rustakning huzuriga kirganida shunday degan edi: — Agar mening bola-chaqam va nevaralarimni unutmasang, o'z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim. Dushmanni daf qilmoq uchun bir hiyla o'ylab topdim. Umrим oxirlab qoldi, axir bu dunyodan ketmoq kerak. Men el-yurt uchun o'limning shirin sharbatini ichmoqqa qaror qildim... Gapimga quloq sol...

Asardan olingan ushbu parchada Shiroq tilidan aytilgan birinchi gap shart ergash gapli qo'shma gap bo'lib, keyingi harakat va holatni bajarish uchun oldindan shart qo'yilgan harakat mazmuni ifodalangan. Shu bilan birga jangovarlik, xitob va da'vat mazmuni ham aks etib turibdi. Chunki Shiroqning nutqida g'alabaga yetish ishonchi ustuvor. Bundan tashqari matnda keltirilgan *o'z shirin jonidan kechmoq, yurt boshiga kelgan baloni daf etmoq, jondan kechmoq, el-yurt uchun o'limning shirin sharbatini ichmoq* kabi bir qator frazeologik birliklar vatanparlik ruhini ifodalab turibdi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy-vatanparvarlik nutqi siyosiy-ijtimoiy notiqlikning tarkibiga kiruvchi boshqa nutq ko'rinishlaridan keskin farq qiladi. Harbiy vatanparvarlik nutqi jangovar kurashga qaratilgan, yuqori vatanparvarlik g'oyasi bilan yo'g'rilgan, siyosiy xarakteri va vatani hamda o'z xalqiga sadoqat ruhida sug'orilganligi bilan xarakterlanadigan, shaxsiy botirlik, ommaviy mardlik ko'rsatishni talab qiladigan nutqdir. Bugungi kunda harbiy til nutqi nazariyasi bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlarini rahbatlantirish va shu sohada malakali kadrlar tayyorlash ham aynan harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasini har tomonlama tadqiq qilish lozimligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. —Toshkent, O'zbekiston, 2021.
2. Aripova A. Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari. —Toshkent, 2007.
3. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. —Toshkent: Yoshlar, 2019.
4. Rasulov R., Mo'yidinov Q., Yunusova Sh. O'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati. T: "Fan va texnologiya" jurnali, 2020. (o'quv qo'llanma).
5. Mirkarim Osim. To'maris. T: 2022.

Muhiddin NURULLAYEV,

ORIENTAL universiteti

Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

"MULK" SURASI OYATLARINING MA'NO TARJIMALARIDA QO'LLANILGAN LEKSIK BIRLIKLAR (O'ZBEK TILI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqola Mulk surasidagi oyatlarning o'zbek tilidagi ma'no tarjimalarida qo'llanilgan leksik birliklarga bag'ishlanadi. Oyatlarni o'zbek tilidagi manosini berishda tarjimon olimlarning so'zlarni tanlash mahoratlari, ularni qiyoslash natijasida mavjud tafvutlar atroflicha o'rganilib yoritib berilgan. Islom dini bilan bog'liq so'zlarning qo'llanilishi haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: arab tili, o'zbek tili, leksikologik tadqiq, leksik birlik, tarjimon, Islom diniga oid so'zlar.

Аннотация: данная статья посвящена лексическим единицам, используемым в узбекском языке переводов аятов суры Мульк. Подробно изучены и проанализированы умения переводчиков в выборе слов при передаче смысла аятов на узбекском языке, а также различия, возникающие в результате их сравнения. Также обсуждается использование слов, связанных с исламом.

Ключевые слова: арабский язык, узбекский язык, лексикологическое исследование, лексическая единица, переводчик, слова об исламе.

Annotation: this article is devoted to the lexical units used in the Uzbek language translations of the verses of the sura Mulk. The skills of the translators in choosing the words in giving the meaning of the verses in the Uzbek language, and the differences that exist as a result of their comparison, have been thoroughly studied and analyzed. The use of words related to Islam is also discussed.

Key words: Arabic language, Uzbek language, lexicological research, lexical unit, translator, Words about Islam.